

## YURIDIK XIZMAT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.

**Akramov Ibrohimjon Oxunjon o'g'li**

*III-darajali yurist*

*Namangan viloyati yuridik texnikumi "Mutaxassislik fanlar" kafedrası  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada xorijiy davlatlarda yuridik xizmat institutini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari muhokama qilinadi. Xorijiy mamlakatlarda (Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Germaniya Federativ Respublikasi) yuridik xizmat institutining eng muvaffaqiyatli yuridik modellarining tavsiflari berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Yuridik xizmat, yuridik xizmat instituti, huquqiy tartibga solish, huquqiy tartibga solish modeli va b.*

Mamlakatimizda yuridik xizmat faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirishda xorijiy davlatlarning yuridik xizmat to'g'risidagi qonun hujjatlarini, ularning tizimi, faoliyati va huquqiy maqomini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Yuridik xizmatdan davlat va jamiyat hayotida unumli foydalanish rivojlangan davlatlar hamda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etishga intilayotgan boshqa mamlakatlarda yo'lga qo'yilgan<sup>1</sup>. Biroq bu boradagi qonunchilikning rivojlanishi har bir mamlakat boshqaruv va tuzilish shaklining o'ziga xosligi, erkin bozor munosabatlarining nechog'liq yo'lga qo'yilganligi, qonun ijodkorligi jarayoni va uni qo'llash mexanizmlarining holatiga asoslanadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi doirasida barcha xorijiy davlatlardagi yuridik xizmat faoliyatini o'rganish va yoritish imkoniyati cheklanganligini hisobga olib, quyida Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi va Germaniya kabi davlatlarning yuridik xizmat faoliyatining huquqiy asoslari, uning tizimi, huquq va vazifalari ilmiy tahlil qilinadi. Rossiya Federatsiyasida yuridik xizmatning huquqiy maqomi normativhuquqiy hujjatlar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning lokal hujjatlari bilan belgilangan<sup>2</sup>. Rossiya Federatsiyasi Konstitusiyasining 48-moddasi<sup>3</sup>da "Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda belgilangan hollarda esa yuridik yordam ko'rsatish bepul amalga oshiriladi" deb qayd qilingan bo'lib, mazkur norma yuridik xizmat huquqiy maqomini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> Мельниченко Р.Г. Право на юридическую помощь: конституционные аспекты. Изд-во ВАГС. 2003. – 199 с.<sup>1</sup>

<sup>2</sup> Указ Президента Российской Федерации от 8 мая 2001 года № 528 «О некоторых мерах по укреплению юридических служб государственных органов». // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://www.gov.cap.ru>] свободный.

<sup>3</sup> Конституция Российской Федерации. // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://www.constitution.ru>] свободный.

Hozirgi kunda federal davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat organlari faoliyatining huquqiy ta'minlanishida yuridik xizmatning rolini oshirishga harakat qilinayotganligini kuzatish mumkin. Bunga yaqqol misol bo'lib, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2001-yil 8-mayda qabul qilingan "Davlat organlarining yuridik xizmatini mustahkamlashning ba'zi chora-tadbirlari to'g'risida"gi 528-sonli Farmonining qabul qilinganligini ko'rsatib o'tish mumkin. Farmonda federal davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat organlari rahbarlariga mazkur organlar (ularning apparati) tarkibiga yuridik xizmat mustaqil tarkibiy bo'linma sifatida kiritilishi va bevosita ushbu organlar yoki ularning apparatlari rahbarlariga bo'ysunishi lozimligi tavsiya etilgan.

Shuningdek, unda huquqiy hujjatlar hamda ularning loyihalarini tayyorlash, tahrir qilish hamda huquqiy ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etadigan va oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan yuridik xizmat xodimlarini moddiy rag'batlantirish maqsadida mazkur organlar rahbarlariga ularning mansab maoshlariga ustamalar o'rnatish huquqi berilgan. Farmon bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumatiga ijroiya hokimiyat federal organlarining yuridik xizmati to'g'risida namunaviy nizomni tasdiqlash vazifasi yuklatilgan. Federatsiya miqyosidagi ijroiya organlar yuridik xizmatining huquqiy holati Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2002-yil 2-aprelda qabul qilingan 207-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Ijroiya hokimiyat federal organlarining yuridik xizmati to'g'risidagi Namunaviy nizom" bilan belgilangan bo'lib, unda yuridik xizmat federal ijroiya organ faoliyatini huquqiy ta'minlash maqsadida tashkil etilishi ko'rsatilgan. Namunaviy nizomda yuridik xizmatning asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi, shuningdek u federal ijroiya organ markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo'linmasi (departament, bosh boshqarma, boshqarma, bo'lim) sifatida tashkil qilinishi va bevosita mazkur organ rahbariga bo'ysunishi, yuridik xizmat rahbari oliy yuridik ma'lumotli bo'lishi lozimligi belgilangan. Yuridik xizmatning asosiy vazifalari Namunaviy nizomning alohida bandida belgilangan bo'lib, unga quyidagilar kiradi: a) ijroiya hokimiyat federal organi faoliyatini huquqiy ta'minlash; b) ijroiya hokimiyat federal organi vakolatiga kiruvchi masalalarni tartibga soluvchi Rossiya Federatsiyasi qonunchiligini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni amalga oshirish; v) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari sifatini yaxshilash. Namunaviy nizomga muvofiq ijroiya hokimiyat federal organlari tomonidan ijroiya hokimiyat federal organi yuridik xizmati to'g'risidagi nizomlar, Rossiya Federatsiyasi subyektlarida (respublika, o'lka, oblast, federal miqyosdagi shahar, avtonom oblast, avtonom okruglarida) esa tegishli federatsiya subyektlari ijroiya hokimiyati organlari yuridik xizmati to'g'risidagi Namunaviy nizomlar tasdiqlangan. Rossiya Federatsiyasi Parlamenti – Federal Majlis (Federal Kengash va Davlat Dumasi) yuridik xizmatlari ham mazkur organlar tomonidan tasdiqlangan nizomlar asosida faoliyat yuritadilar. Rossiya Federatsiyasida korxonalar, muassasa, tashkilotlar (xo'jalik yurituvchi subyektlar) yuridik xizmati faoliyatini tartibga soluvchi yangi normativ-huquqiy hujjat qabul qilinmagan, biroq hozirgi kunga qadar sobiq SSSR Ministrlar Sovetining 1972-yil

22-iyundagi 467-son qarori bilan tasdiqlangan “Vazirliklar, idoralar, mehnatkashlar deputatlari Soveti ijroiya qo‘mitasi, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning yuridik bo‘limlari (byuro), bosh (katta) yuriskonsultlari, yuriskonsultlari to‘g‘risidagi Umumiy nizom” o‘z kuchini saqlab qolgan bo‘lib, unda jumladan korxonalar, muassasa, tashkilotlar yuridik xizmatining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va javobgarligi belgilangan. Amalda ko‘pchilik hollarda xo‘jalik yurituvchi subyektlar yuridik xizmatlari yuqorida qayd qilinganidek lokal hujjatlar, ya‘ni ichki nizomlar hamda mansab yo‘riqnomalari asosida faoliyat yuritadilar. Jamiyat va innovatsiyalar – Rossiya Federatsiyasi Mehnat vazirligining ko‘rsatmalariga asosan tashkilotlardagi yuristlarning rasmiy nomlanishi – yuriskonsult hisoblanadi Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat tashkilotlarida har bir mansabga nisbatan ish haqi razryadi belgilangan. muassasalar va tashkilotlar yuridik xizmati. Federal davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining yuridik xizmati. Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 2004-yil 28-maydagi 699-sonli Qaroriga asosan “Rossiya Federatsiya Prezidenti Davlat-huquqiy boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqlangan. Boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: a) Rossiya Federatsiyasi Prezidentining huquqiy masalalar bo‘yicha faoliyatini ta‘minlash; b) Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Ma‘muriyati faoliyatini huquqiy ta‘minlash; v) Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Ma‘muriyati bo‘linmalarini axborot-ma‘lumot bilan ta‘minlash, shuningdek huquqiy masalalar bo‘yicha Rossiya Federatsiyasi Hukumati Apparati, ijroiya hokimiyati federal organlari Rossiya Federatsiyasi subyektlari davlat hokimiyati organlariga maslahat yordami ko‘rsatish; g) Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi odilsudlovni takomillashtirish masalalari bo‘yicha Kengash va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish va kodifikatsiya qilish bo‘yicha Kengash, shuningdek Rossiya Federatsiyasining inson huquqlari bo‘yicha Yevropa Sudidagi Vakili faoliyatini ta‘minlash. Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasi Devonining mustaqil tarkibiy tuzilmasi sifatida namoyon bo‘ladigan Huquqiy boshqarmaning maqomi 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan “Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining Davlat Dumasi Devonining Huquqiy boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizom” bilan belgilangan bo‘lib, unga binoan Huquqiy boshqarma zimmasiga quyidagi asosiy funksiyalar yuklatilgan:

Davlat Dumasi kengashining yoki qonun loyihasini tayyorlash uchun mas‘ul bo‘lgan qo‘mitalarning topshirig‘iga binoan Dumaga kelib tushgan qonun loyihalarini, Davlat Dumasining qarorlari, arizalari, murojaatlari, parlament so‘rovlarining, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaatlarining loyihalarini amaldagi qonunchilikka, xalqaro shartnomalarga mosligi nuqtai nazaridan huquqiy ekspertizadan o‘tkazish, xulosalar tayyorlash, shu bilan birga ko‘rsatilgan hujjatlarning yuridik-texnik va lingvistik qayta ishlanishida ishtirok etish;

Davlat Dumasida qabul qilingan va tayyorlangan barcha hujjatlarni Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining Federatsiya Kengashiga hamda Rossiya Federatsiyasi Prezidentiga yuborilishi jarayonida ishtirok etish;

Davlat Dumasi deputatlariga, uning ichki tuzilmalariga qonun loyihalarini Davlat Dumasiga kiritishdan oldin bu hujjatlar loyihalarini tayyorlash va ularning kuzatuv xatlarini tayyorlash masalalari bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish; Davlat Dumasi majlislarini huquqiy ta'minlashda ishtirok etish;

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligining hisobini va tizimlashtirilishini amalga oshirish;

Davlat Dumasini huquqiy axborotlashtirishda, uning axborot fondi resurslarini shakllantirishda ishtirok etish;

Davlat Dumasi deputatlari va uning devoni xodimlarining huquqiy bilimlarini oshirishda ishtirok etish va boshqalar. Huquqiy boshqarma 10 ta bo'limdan iborat bo'lib, Davlat Dumasining eng yirik va asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Boshqarma tarkibiga kiruvchi 10 ta bo'limdan 6 tasi qonunchilik tarmoqlari bo'yicha huquqiy ekspertizani amalga oshiradi. Shuningdek boshqarmada, qonunchilik texnikasi bo'limi, qonunchilik faoliyati subyektlariga huquqiy yordam ko'rsatish bo'limi, qonunchilikni hisobga olish va tizimlashtirish bo'limi, qonun loyihalarining lingvistik ekspertizasi bo'limi faoliyat ko'rsatadi. Ijroiya hokimiyat federal organlarining yuridik xizmati. Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2002-yil 2-aprelda qabul qilingan 207-sonli Qaroriga muvofiq, federal ijroiya hokimiyat organlari hisoblangan barcha vazirliklar va davlat qo'mitalarida yuridik xizmat to'g'risidagi nizomlar tasdiqlangan. Nizomlar, qiyosiy tahlilining ko'rsatishicha, vazirliklar va davlat qo'mitalari yuridik xizmatlarining huquqiy maqomi yuqorida keltirilgan Namunaviy nizom normalariga asoslangan holda belgilanganligi sababli, avvalo, ularning barchasiga xos bo'lgan funksiyalar va huquqlarni yoritib berish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga egadir. Rossiya Federatsiyasi federal ijroiya hokimiyat organlari hisoblangan barcha vazirliklar va davlat qo'mitalarida yuridik xizmat quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: federal ijroiya hokimiyat organi tomonidan ishlab chiqiladigan federal qonunlar loyihalari, shuningdek Rossiya Federatsiyasi Prezidenti farmonlari va farmoyishlari, Hukumat qarorlari va farmoyishlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi yoki tayyorlashda ishtirok etadi (tahlil qiladi, huquqiy ekspertizadan o'tkazadi), federal ijroiya hokimiyat organi buyruqlari, yo'riqnomalari, qarorlari, farmoyishlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o'tkazadi hamda ularga qo'shimchalar kiritish yoki bekor qilish to'g'risida takliflar tayyorlaydi, federal ijroiya hokimiyat organiga kelib tushgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha xulosalar tayyorlaydi; federal ijroiya hokimiyat organi rahbariga taqdim qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va xulosalarga viza qo'yadi, federal ijroiya hokimiyat organi faoliyati sohasidagi davlat boshqaruvini takomillashtirish va federal ijroiya hokimiyat organi vakolatlarini aniqlashtirishga oid takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi; boshqa bo'linmalar bilan birgalikda qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotini umumlashtiradi, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi va ularni federal ijroiya hokimiyat organi rahbariga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi, xalqaro shartnomalar loyihalarini tayyorlanishda ishtirok etadi,

federal ijroiya hokimiyat organi rahbarining topshirig'iga ko'ra xalqaro shartnomalar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazadi, federal ijroiya hokimiyat organi manfaatlarini sudlar va boshqa organlarda belgilangan tartibda ifoda etadi, normativ-huquqiy hujjatlarni tizimli hisobga olish va saqlashni amalga oshiradi, federal ijroiya hokimiyat organi tizimiga kiruvchi hududiy organlar huquqiy ishlariga uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi, federal ijroiya hokimiyat organi, uning tizimidagi hududiy organlar va tashkilotlar xodimlariga federal ijroiya hokimiyat organi vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatadi, federal ijroiya hokimiyat organi rahbariyati uchun qonunchilik bo'yicha ma'lumotnomalar tayyorlaydi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tahrir qiladi; federal ijroiya hokimiyat organi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar to'plamini nashr etish uchun tayyorlaydi<sup>1</sup>. Federal ijroiya hokimiyat organlari yuridik xizmati shuningdek muayyan federal ijroiya hokimiyat organi yuridik xizmati to'g'risidagi nizomga va shu organning boshqa hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi. Rossiya Federatsiyasi federal ijroiya hokimiyat organlari yuridik xizmati: federal ijroiya hokimiyat organi tarkibiy bo'linmalari, hududiy organlari va tashkilotlaridan belgilangan tartibda o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va boshqa hujjatlarni so'rash; federal ijroiya hokimiyat organi tarkibiy bo'linmalari rahbarlari roziligi bilan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, shuningdek, o'ziga yuklatilgan funksiyalarga muvofiq yuridik xizmat tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ushbu bo'linmalar xodimlarini jalb etish, shuningdek, qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarga ega. Rossiya Federatsiyasi Bosh prokuraturasida ham yuridik xizmat vazifalarini amalga oshirish uchun mustaqil tarkibiy tuzilmasi sifatida Huquqiy ta'minlash boshqarmasi tashkil qilingan bo'lib, uning faoliyati Rossiya Federatsiyasi Bosh prokurorining 1996-yil 19-iyundagi buyrug'i bilan tasdiqlangan "Rossiya Federatsiyasi Bosh prokuraturasi Huquqiy ta'minlash boshqarmasi to'g'risidagi Nizom" bilan tartibga solinadi. Nizomda Huquqiy ta'minlash boshqarmasining tuzilishi, vazifalari, huquqlari, ishni tashkil qilish tartibi, shuningdek Bosh prokurorning Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisidagi vakolatli vakili funksiyalari belgilangan. Mazkur boshqarma: qonun loyihalarini tayyorlash va ekspertiza qilish, qonun hujjatlarini tizimlashtirish bo'limlari, yuridik adabiyotlar kutubxonasi, devonxonadan iborat. Boshqarmaning vazifalari qatoriga jumladan, Bosh prokuratura, unga bo'ysunuvchi organlar va muassasalarning huquq ijodkorligi faoliyatida ishtirokini ta'minlash, prokuratura organlarida qonun hujjatlarini tizimlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish kabilar kiradi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar (korxonalar, muassasalar va tashkilotlar) yuridik xizmati. Rossiya Federatsiyasidagi xo'jalik yurituvchi subektlarda, qoida tariqasida, mustaqil tarkibiy bo'linma sifatida yuridik xizmat tashkil qilinadi va ular yuqorida qayd qilingan 1972-yil 22-iyundagi Umumiy nizom asosida tasdiqlangan ichki nizomlar va mansab yo'riqnomalariga muvofiq faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, "Volga" yopiq aksiyadorlik jamiyatining yuridik xizmat to'g'risidagi Nizomi

aksiyadorlik jamiyati prezidenti tomonidan 2000-yil 21-aprelda tasdiqlangan. Unda yuridik xizmatni tashkil etish maqsadi, uning vazifalari, huquqlari, xodimlari tarkibi va boshqa normalar belgilangan. Nizomga ko'ra yuridik xizmat korxonaning huquq va qonuniy manfaatlarini yuridik vositalar yordamida himoya qilish; korxonada tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirish va uning mansabdor shaxslari qabul qiladigan qarorlarning qonuniyligini ta'minlash; korxonadagi ichki va tashqi hujjat aylanishini yuridik jihatdan to'g'ri tashkil qilish va ta'minlash; korxonada debitorlik qarzlarni darajasini minimumga (eng oz miqdorga) keltirish; korxonada xodimlarining ishlab chiqarish faoliyati sohasida yuridik bilimlari darajasini ko'tarish; korxonada ma'muriyatini huquqiy xarakterdagi ma'lumotlar bo'yicha axborot va maslahat bilan ta'minlash maqsadida tashkil qilinadi va faoliyat yuritadi. Nizomda bevosita pul mablag'larini jalb qilish, korxonada daromadini ta'minlash yuridik xizmat faoliyatining maqsadi hisoblanmasligi belgilab qo'yilganligi diqqatga sazovor bo'lib, bu norma yuridik xizmat o'z faoliyatini uning oldidagi asosiy vazifalarini og'ishmay bajarishi uchun xizmat qiladi. Nizomda yuridik xizmatning vazifalari ham batafsil yoritilgan bo'lib, undagi vazifalar Umumiy nizom qoidalariga mos keladi, ammo yuridik xizmatga o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan hollarda kutubxona ishlarini olib borish, nusxa ko'paytirish va boshqa texnik ishlarni ham yuklatilganligi amaldagi qonunchilikka ziddir. Rossiya Federatsiyasida xo'jalik yurituvchi subektlarda huquqiy ishlarni nafaqat shtatdagi yuridik xizmat xodimlari, balki maxsus yuridik firmalar, yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar (yuristlar), advokatlik hay'atlari fuqarolik huquqiy shartnomalar asosida amalga oshiradilar. Yuridik firmalarning ko'pchiligi foyda olish va uning ishtirokchilari (muassislari) o'rtasida taqsimlash uchun tijorat tashkiloti sifatida tashkil qilinadi. K.Lebedevning fikricha, yuridik biznes – bu foyda olish maqsadida haq evaziga tijorat asosida yuridik faoliyatni amalga oshirishdir. Yuridik faoliyat – bu mijoz-buyurtmachining manfaati yo'lida amalga oshiriladigan huquqiy ishlarni bajarish va huquqiy xizmat ko'rsatishdir. Yuridik firmalarni tashkil qilish va ularning faoliyati hozircha maxsus normativ-huquqiy tarzda tartibga solinmagan, chunki tijorat maqsadida tashkil etilgan yuridik firmalarga oid qonunchilikda hech qanday cheklashlar (lisenziya olish, akkreditatsiyadan o'tish va hokazo) nazarda tutilmagan. Shu sababli bunday firmalar Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 50-moddasida ko'rsatilgan barcha tashkiliy-huquqiy shakllarda, ya'ni xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, ishlab chiqarish kooperativlari; davlat va munisipal unitar korxonada shaklida tashkil etilishi mumkin. Yuridik firmalar asosan tadbirkorlik tuzilmalariga xizmat qiladi va yuridik amaliyotning boshqa yo'nalishlarida, masalan, jinoyat ishlarini olib borish va jinoiy javobgarlikka tortilayotgan fuqarolarni himoya qilish bilan shug'ullanmaydilar. Yuridik firmalar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat: huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar berish; ta'sis hujjatlarini tayyorlash, ularga o'zgartirishlar kiritish va yangi tashkil qilinayotgan yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish; umumiy yurisdiksiya, arbitraj va hakamlik sudlarida ma'muriy va fuqarolik huquqiy

munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar bo'yicha ishlarni olib borish; shartnomalarni tuzish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda imzolashda ishtirok etish; ta'sis hujjatlari, shartnomalar va ishgataalluqli bo'lgan boshqa hujjatlarni huquqiy ekspertiza qilish. Advokatura (advokatlik byurosi, yuridik maslahatxona, advokatlik kabineti) xo'jalik yurituvchi subyektlarga yuridik xizmat ko'rsatishda muhim ro'l o'ynaydi. 2002-yil 26-aprelda "Rossiya Federatsiyasida advokatura va advokatli faoliyati to'g'risida"gi federal Qonun qabul qilingan. Rossiya Federatsiyasida yakka tartibda faoliyat yurituvchi yuristlar ham xo'jalik yurituvchi subyektlarga yuridik xizmat ko'rsatishi mumkin. Bunday faoliyatni yuritish uchun lisenziya talab qilinmaydi. Ular yakka tartibda yoki yozma shaklda oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) tuzish orqali ikki yoki undan ortiq yakka tartibda faoliyat yurituvchi yuristlar bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi subyektlarga yuridik xizmat ko'rsatadilar. Qozog'iston Respublikasi ham o'zining tarixiy rivojlanishida yangi bosqichga ko'tarilib, tegishli huquqiy islohotlarni amalga oshirgan holda bozor munosabatlariga asoslangan yangi iqtisodiy tizimni shakllantirmoqda. Ushbu muhim vazifalarni hal etishda yuridik xizmat tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy ishlarga sezilarli o'rin ajratilmoqda. Qozog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining (Qozog'iston Respublikasi Parlamenti palatalari –Senat va Majilis hamda Hukumati), ministrlilar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy vakillik va ijroiya organlari (maslahat va akimiyat), korxonalar va muassasalar yuridik xizmatining huquqiy asoslari tegishli organlarning normativ hujjatlari, shu jumladan Qozog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (Hukumati)ning 1995-yil 5-maydagi 624-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Davlat boshqaruvi organlari va ularga bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar yuridik xizmat to'g'risidagi Nizom" bilan tartibga solinadi. Mazkur qarorning 2-bandida mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha yuridik shaxslarga ushbu Nizom qoidalaridan kelib chiqqan holda huquqiy ishlarni amalga oshirish tartibini belgilash tavsiya etilgan. Ushbu Nizom 14-bandni o'z ichiga olgan quyidagi 5 bo'limdan iborat: umumiy qoidalar, yuridik xizmatni tashkil qilish, davlat boshqaruv organlari va ularga bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar yuridik xizmati vakolatlari, yuridik xizmat xodimlari ish haqi, yuridik xizmat xodimlari javobgarligi. Umumiy qoidalarda Nizom bilan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat boshqaruv organlarining barcha tuzilmalari va ularga bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar yuridik xizmatini tashkil qilish va faoliyatining umumiy talablari o'rnatilganligi hamda yuridik xizmat xodimlari huquqiy maqomi belgilanganligi; yuridik xizmat mustaqil tarkibiy bo'linma (boshqarma, bo'lim) sifatida tashkil qilinishi va bevosita birinchi rahbarga bo'ysunishi; mazkur organlar huquqiy ishlariga Adliya vazirligi va boshqarmalari uslubiy rahbarlikni amalga oshirishi hamda ularning tavsiyalari barcha yuridik xizmatlar tomonidan qo'llash majburiy ekanligi; yuridik xizmatning asosiy vazifalari ko'rsatilgan. Unga ko'ra yuridik xizmatning asosiy vazifalari quyidagilar: vazirliklar, idoralar, mahalliy ijroiya organlari va ularga bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar faoliyatida qonuniylikka rioya etilishini ta'minlash; yuridik shaxsning mulkiy va

boshqa huquq hamda qonuniy manfaatlarini huquqiy vositalar orqali himoya qilish; Qozog'iston Respublikasining amaldagi qonunchiligini targ'ib qilish va tushuntirish, umumiy huquqiy ta'limni tashkil etish; normativ hujjatlar, buyruqlar, qarorlar va boshqa huquqiy xususiyatga ega bo'lgan hujjatlarning loyahasini tayyorlashda ishtirok etish hisoblanadi. Davlat boshqaruv organlari va korxonalar, muassasalarda ish hajmi, xususiyati va murakkabligiga qarab rahbarning huquqiy masalalar bo'yicha o'rinbosari, bosh (katta) yuriskonsult, yuriskonsult lavozimlari kiritiladi hamda bu lavozimlarga maxsus yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar tayinlanadilar. Yuridik xizmatni tugatish yoki qayta tashkil etish, uning xodimlari sonini qisqartirish yuqori turuvchi organning qaroriga ko'ra amalga oshirishi lozimligi to'g'risidagi normaning Nizomda belgilanganligi yuridik xizmat faoliyatining muhim kafolati hisoblanadi. Nizomning uchinchi bo'limida vazirliklar, idoralar, mahalliy ijroiya organlar yuridik xizmati hamda ularga bo'ysunuvchi korxonalar, muassasalar yuridik xizmati vakolatlari alohida bandlarda, ularning huquqlari esa bir xil belgilangan. Davlat boshqaruv organlari vakolatlarining o'ziga xos jihatlaridan biri ular zimmasiga korxonalar va muassasalar yuridik xizmat xodimlarining malakasini va huquqiy bilimlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishini yuklatilganligidir. Nizomda yuridik xizmatning huquqlari jumlasiga boshqalardan farq qiluvchi quyidagi huquqlar, ya'ni yuridik xizmat normativ hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalariga, agar ular amaldagi qonunchilikka muvofiq bo'lmasa viza qo'yishni rad qilishi mumkinligi; huquqiy ishlarni tashkil qilish masalalari bo'yicha bo'ysunuvchi korxonalar va muassasalar yuridik xizmat xodimlari ijro qilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berishi; qabul qilinayotgan normativ hujjatlar va boshqa hujjatlar bo'yicha amaldagi qonunchilikka asoslangan fikr va tavsiyalar berishi; rahbariyatning roziligi bilan davlat organlari va korxonalar, muassasalar xodimlarini huquqiy o'qitish uchun yuridik xizmat huzurida kontrakt asosida huquqiy o'quv maktabi yoki maslahat punkti tashkil etish mumkinligi to'g'risidagi normalar belgilanganligi ularning har tomonlama mavqeini oshirishga xizmat qiladi. Nizomda, shuningdek, barcha xodimlar uchun belgilangan mukofotlash tizimi bilan bir qatorda rahbarlarga davlat organi va korxonalar, muassasalar imkoniyatidan kelib chiqib yuridik xizmat xodimlarini qo'shimcha moddiy rag'batlantirish tartibini o'rnatish huquqi berilgan. Yuqoridagi normativ hujjatlar bilan birga barcha vazirliklar va idoralar o'zlarining faoliyatlaridan kelib chiqqan holda, yuridik xizmatni tashkil etish va rivojlantirish maqsadida ichki normativ hujjatlarni ham qabul qilganlar. Germaniyada barcha davlat organlari va yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda (kompaniyalar, korxonalarda va hokazo) huquqiy ishlarni amalga oshirish uchun yuridik xizmat tashkil qilinadi. Yuridik xizmat davlat organlari va kompaniyalarning tarkibiy tuzilmasi hisoblanib, u - yuridik bo'lim, yuridik guruh, yuriskonsult shaklida tashkil qilinadi. Yuridik xizmatning huquqiy maqomi va faoliyati maxsus normativ- huquqiy hujjatlar bilan emas, balki davlat organlari va kompaniyalarning ichki hujjatlari (nizomlar, mansab yo'riqnomalari, mehnat shartnomasi) bilan tartibga solinadi. Lekin bu Germaniyada yuridik xizmatga oid umuman hech qanday normativ-huquqiy hujjat mavjud emas



degan xulosaga kelish uchun asos bo'lmaydi. Chunki davlat organlari va kompaniyalar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, prosessual qonun hujjatlarida yuridik xizmat tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy ishlar va uning faoliyatiga oid boshqa normalar, davlat xizmatchilari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan. Yuriskonsult lavozimiga universitetni bitirgan va birinchi imtihonni muvaffaqiyatli tugatgan yuristlar tayinlanadi. Yuridik bo'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: huquqiy masalalar bo'yicha kompaniya rahbarlari va mutaxassislariga maslahatlar berish; shartnomalarni (xo'jalik va mehnat shartnomalarini) tuzishda ishtirok etish va ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish; talabnoma ishlarini yuritish; sudlarda kompaniyaning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun tegishli hujjatlar va materiallarni tayyorlash hamda ularni advokatlarga taqdim etish. Yuridik xizmat xodimlari ham advokat maqomini olishlari mumkin, ammo ular kompaniyada ishlayotgan paytida advokat sifatida faoliyat ko'rsata olmaydilar. Germaniyada kompaniyalarning yuridik xizmat xodimlari bizning mamlakatimizdagidan farqli o'laroq, sudlarda kompaniya huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vakolatiga ega emaslar. Bu vazifani tegishli sudlarda qatnashish huquqiga ega bo'lgan advokatlar amalga oshiradilar. Ammo, sud majlislari ochiq bo'lganligi sababli yuridik xizmat xodimlari ham barcha fuqarolar singari unda qatnashishlari mumkin. Advokatlarga kompaniya da'vogar bo'lganda da'vo arizalarini yoki javobgar bo'lganda da'vo arizasiga yuzasidan fikrnomalarni yozish va ularga ilova qilish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va materiallarni kompaniya yuridik xizmati tayyorlab beradi. Advokatlarning kasbiy huquq va majburiyatlari 1959-yil 1-avgustda qabul qilingan Federal advokatura to'g'risidagi Nizom bilan tartibga solinadi. Qonun kuchiga ega bo'lgan mazkur Nizomga 1994-yil 2-sentyabrdagi tuzatishlar bilan jiddiy o'zgartirishlar kiritilgan. Germaniyada fuqarolik prosessi advokatning majburiy ravishdagi ishtiroki yoki uning ishtirokisiz amalga oshiriladi. Germaniya FPKning 78-§ muvofiq okrug (landgerixt) va boshqa barcha yuqori instansiya sudlarida taraflar advokat orqali o'z manfaatlarini himoya qilishlari mumkin. Agar taraflar advokat orqali vakillik qilishi majburiy bo'lmagan hollarda, nizo sudda taraflarning o'zi yoki fuqarolik prosessual muomala layoqatiga ega bo'lgan har qanday shaxsni vakil qilish orqali ko'rib chiqilishi mumkin. Demak, bunday hollarda vakil sifatida kompaniyaning yuridik xizmat xodimi ishtirok etishi mumkin bo'ladi. Yuqorida amalga oshirilgan tahlillarga xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xorijiy mamlakatlarning yuridik xizmat ko'rsatishga oid tajribasini o'rganish mamlakatimizda yuridik xizmat faoliyatining tashkiliyhuquqiy tomonlarini rivojlantirishda, uning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Конституция Российской Федерации. // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://www.constitution.ru>] свободный.
2. Мельниченко Р.Г. Право на юридическую помощь: конституционные аспекты. Изд-во ВАГС. 2003. – 199 с.
3. Указ Президента Российской Федерации от 8 мая 2001 года № 528 “О некоторых мерах по укреплению юридических служб государственных органов”. // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://www.gov.cap.ru>] свободный.
4. Юридическая служба на предприятии: настольная книга юрисконсульта./ С.М.Айзин, М.Ю.Тихомиров. – М.: 2003. – С.38-40.
5. Rossiya Federatsiyasi Tabiat resurslari vazirining 2002 yil 8 avgustdagi 486-sonli “Tabiat resurslari vazirligi yuridik xizmati to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘i // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://www.mnr.gov.ru>] свободный.
6. Постановление Кабинета Министров Чувашской Республики от 26 августа 2004 года № 195 “Об утверждении Типового положения о юридической службе органа исполнительной власти Чувашской Республики” // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://www.gov.cap.ru>] свободный.
7. Хакимова , К. и Неъматов, Ж. 2021. Особенности оплаты вознаграждения и компенсации расходов адвоката в соглашении об оказании юридической помощи в Республике Узбекистан и зарубежных странах. Общество и инновации. 24/S (май 2021), 19–26. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp19-26>.
8. Юридическая служба на предприятии: настольная книга юрисконсульта./С.М.Айзин, М.Ю.Тихомиров.–М.: ЮРИНФОРМЦЕНТ, 2003. – С.6; Чашин А.Н. Юридическая служба в Российской Федерации: учебное пособие. – М.: ЗАО ИКС “ДИС”, 2005. – С.7; Пугинский Б.И. Состояние и перспективы развития юридических служб // Ж. Вестник Российского Союза юристов. – 2003. – № 5-6. – С.18- 19.
9. Положение о юридической службе Жуковской торгово-промышленной палаты // Электронный ресурс. Режим доступа: [[http://www. zhuktp.ru](http://www.zhuktp.ru)] свободный.
10. Лебедев К.К. Правовое обслуживание бизнеса (корпоративный юрист): Учеб.-практ. Пособие. – М.:Юристъ, 2001. – С.15
11. Постановления Правительства РФ от 18 марта 1999 г. № 309 «О повышении тарифных ставок (окладов) Единой тарифной сетки по оплате труда работников бюджетной сфере» // Собрание законодательства Российской Федерации. – 1999. – № 13. – С. 1605

12. Положение о Государственно-правовом управлении Президента Российской Федерации. // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://www.kremlin.ru>] свободный.

13. Положение о Правовом управлении Аппарата Государственной Думы Федерального Собрания Российской Федерации. // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://base.consultant.ru>] свободный.

14. Саттаров , Ф. 2021. Представительство в гражданском процессе: национальный и зарубежный опыт. Общество и инновации. 2, 8/S (сен. 2021), 8–16. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss8/S-pp8-16>.

15. Положение об Управлении правового обеспечения Генеральной Прокуратуры Российской Федерации (утверждено Генеральным прокурором Российской Федерации 19 июня 1996 года). // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://www.businesspravo.ru>] свободный.

16. Лебедев К.К. Правовое обслуживание бизнеса (корпоративный юрист): Учеб.-практ.пособие. – М.: Юристь, 2001. – С.11-105; Чашин А.Н. Юридическая служба в Российской Федерации: учебное пособие.– М.: ЗАО ИКЦ “ДИС”, 2005. – С.20-27; Голованя И.В. Правовая работа и защита прав предпринимателей. – Донецк, 2004. – С. 15-36; Титиевский А.Н. Организация правовой работы на предприятиях. // Электронный ресурс. Режим доступа: [<http://www.distance.ru>] свободный.; ЛипеньЛ.И. Справочник юрисконсульта. – Минск, Дикта, 2005. – С. 75-89; Сергеев В.И. Авдokat и юридическая служба // Ж. Юрист. – 2000. – № 3. – С. 16-23.

17. Полный сборник кодексов Российской Федерации: 21 действующий кодекс РФ с последними изменениями и дополнениями (по состоянию на 15 октября 2004 года; включая изменения, вступающие в силу с 1 января 2005 года). - Новосибирск: Сиб.унив. изд-во, 2004. – С.7

18. Лебедев К.К. Правовое обслуживание бизнеса (корпоративный юрист): Учеб. - практ. Пособие. – М.: Юристь, 2001. – С. 26